

UO'K: 327.3(575.1)

**MARKAZIY OSIYODAGI ZAMONAVIY GEOSIYOSIY
TENDENSIYALAR
СОВРЕМЕННЫЕ ГЕОСОЦИАЛЬНЫЕ ТЕНДЕНЦИИ
В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ
MODERN GEOSOCIAL TRENDS IN CENTRAL ASIA**

Sa'diyeva Guzal Olimovna ORCID: 0009-0007-9649-7056

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Davlat boshqaruvi akademiyasi kafedra mudiri,
s.f.f.d. (PhD),
Toshkent davlat Sharqshunoslik
universiteti tadqiqotchisi**

Annotatsiya:

Ushbu maqolada Markaziy Osiyo mintaqasida yuzaga kelayotgan zamonaviy geosiyosiy tendensiyalarning mazmun-mohiyati va ularning mintaqaviy hamkorlikka ko'rsatayotgan ta'siri ilmiy tahlil etiladi. Muallif mintaqa davlatlari o'rtasidagi siyosiy muloqotning institusionallashuv jarayonlari, xususan, "C5+" formatidagi strategik sheriklik platformalarining shakllanishi va ularning mintaqada barqarorlik hamda integratsiyani ta'minlashdagi o'rini tadqiq etadi. Shu bilan birga, xalqaro siyosiy aktorlarning mintaqadagi faolligining ortishi, yangi geosiyosiy muvozanatlarning yuzaga kelishi, mintaqaviy tashkilotlar va yetakchi davlatlar bilan hamkorlikning istiqbollari atroflicha yoritiladi. Maqola yakunida muallif tomonidan bir qator ilmiy taklif va xulosalar ilgari surilgan.

Аннотация:

В настоящей статье даётся научный анализ современных геополитических тенденций, развивающихся в регионе Центральной Азии, с акцентом на их влияние на динамику регионального взаимодействия. Автор рассматривает институционализацию политического диалога между странами региона, особенно в контексте платформы стратегического партнёрства формата "C5+", как важного инструмента укрепления стабильности и углубления интеграции. Также анализируется возрастание активности глобальных геополитических акторов в регионе, формирование новых балансов сил, а также перспективы сотрудничества с международными организациями и ведущими государствами. В завершение представлены авторские предложения и научные выводы.

Abstract:

This article provides a scholarly analysis of current geopolitical trends unfolding in Central Asia, emphasizing their implications for regional cooperation and stability. The author explores the institutionalization of intergovernmental dialogue among Central Asian countries, focusing on the development of the "C5+" strategic partnership platform as a mechanism to foster long-term integration and regional resilience. The article also examines the increasing activity of global geopolitical actors, the emergence of new regional power dynamics, and the

prospects for collaboration with international organizations and leading global powers. The study concludes with a set of evidence-based recommendations and scientific insights.

Kalit soʻzlar: Markaziy Osiyo, geosiyosiy jarayonlar, xalqaro hamkorlik, integratsiyaviy mexanizmlar, tashqi siyosiy strategiya, mintaqaviy formatlar, C5+.

Ключевые слова: Центральная Азия, геополитические процессы, международное сотрудничество, интеграционные механизмы, внешнеполитическая стратегия, региональные форматы, C5+.

Keywords: Central Asia, geopolitical processes, international cooperation, integration mechanisms, foreign policy strategy, regional formats, C5+.

KIRISH.

Bugungi kunda Markaziy Osiyo hozirgi zamon geosiyosiy jarayonlarida tobora muhim oʻrin egallab bormoqda. Bu mintaqa geografik joylashuvi, tabiiy resurslarga boyligi, tranzit salohiyati hamda tarixiy-madaniy oʻziga xosligi bilan xalqaro siyosatdagi turli manfaatlar toʻqnashuv nuqtasiga aylanib ulgurdi deyish mumkin. Ayniqsa, XXI asrdagi global oʻzgarishlar, yirik davlatlar oʻrtasidagi raqobat va mintaqaviy xavfsizlik masalalari Markaziy Osiyoning strategik ahamiyatini yanada oshirmoqda. AQSH, Rossiya, Xitoy, Turkiya, Eron va Yevropa Ittifoqi kabi qator global va mintaqaviy aktorlar Markaziy Osiyoda oʻz taʼsir doirasini mustahkamlashga intilayotgani kuzatilmogʻda. Shu bilan birga, Afgʻonistondagi vaziyat, transport va energetika loyihalari, suv resurslari bilan bogʻliq kelishmovchiliklar ham mintaqaning ichki muvozanati va tashqi aloqalariga taʼsir koʻrsatmoqda. Mana shunday murakkab geosiyosiy vaziyat va nobarqarorlik sharoitida Markaziy Osiyo davlatlari oldida katta chaqiriqlar mavjudligi va bu chaqiriqlarga tayyor boʻlish, buning uchun mintaqa davlatlari manfaatlariga mos keladigan hamorlik platformalarini ishlab chiqish va hamkorlikni kuchaytirishga har doimgidan koʻproq ehtiyoj tugʻilmoqda.

METODLOGIYA

Tadqiqotni olib borishda muammoga doir siyosiy, ijtimoiy adabiyotlarni qiyosiy-tanqidiy oʻrganish, tahlil etish, solishtirma usullaridan foydalanilgan.

Mintaqada barqarorlikni taʼminlash, xavfsizlik muammolarini bartaraf etish, tashqi taʼsirlarga nisbatan yagona yondashuvni shakllantirish va iqtisodiy rivojlanishni taʼminlashda integratsiyaviy mexanizmlarni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan qaralganda, Markaziy Osiyo davlatlari nafaqat ichki siyosiy barqarorlikni mustahkamlashi, balki oʻzaro ishonch, ochiq muloqot va pragmatik hamkorlik asosida mintaqaviy birlikni yoʻlga qoʻyishi zarur.

Ayniqsa, tashqi geosiyosiy aktorlar oʻrtasidagi raqobatning kuchayishi mintaqada har bir davlatning strategik manfaatlarini muhofaza qilishda yangi yondashuvlarni talab etmoqda. Bu esa, oʻz navbatida, umummintaqaviy yondashuvni talab qiluvchi masalalarda — masalan, suv resurslaridan oqilona foydalanish, chegara xavfsizligi, transport va energetika loyihalarida — hamkorlikni mustahkamlashni taqozo etmoqda.

Ayniqsa, tashqi geosiyosiy aktorlar oʻrtasidagi raqobatning kuchayishi mintaqada har bir davlatning strategik manfaatlarini muhofaza qilishda yangi yondashuvlarni talab etmoqda. Bu esa, oʻz navbatida, umummintaqaviy yondashuvni talab qiluvchi masalalarda — masalan, suv resurslaridan oqilona foydalanish, chegara xavfsizligi, transport va energetika loyihalarida — hamkorlikni mustahkamlashni taqozo etmoqda. Shunday sharoitda, Markaziy Osiyodagi zamonaviy geosiyosiy tendensiyalarni chuqur tahlil qilish, ularning kelib chiqish manbalari, taʼsir doirasi va istiqbollarni oʻrganish nafaqat ilmiy-nazariy jihatdan, balki amaliy siyosat yuritish nuqtai nazaridan ham dolzarb hisoblanadi.

NATIJARLAR VA MUHOKAMA

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev “Markaziy Osiyoning xavfsizligi va barqarorliginib ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini taʼminlashga alohida eʼtibor qaratmoqdamiz. Muxtasar qilib aytganda xalqaro siyosiy lugʻatda mintaqaviy taraqqiyotni taʼminlashga xizir 10 qiluvchi oʻziga xos modelni aks ettirgan yangi “Markaziy Osiy ruhi” atamasi paydo boʻldi”[1] deb taʼkidlaganlarida haq edilar.

Darhaqiqat, Markaziy Osiyoda bugungi kundagi zamonaviy geosiyosiy tendensiyalarga quyidagilarni kiritish mumkin. Bular:

Mintaqaviy hamkorlikning yangi bosqichga ko'tarilishi, bunda Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida siyosiy, iqtisodiy va xavfsizlik sohalarida muloqot va hamkorlikning faollashishi, davlat rahbarlarining Maslahat uchrashuvlari, S5+1 formatlari, Maxsus komissiyalar va ekspertlar guruhlarini orqali transchegaraviy muammolarni hal qilishga intilish (suv, chegara, ekologiya) kabi masalalarni kiritish mumkin.

Mintaqada Afg'oniston muammosining mintaqaviy xavfsizlikka ta'siri ostida Markaziy Osiyo davlatlarining Afg'onistondagi vaziyatni barqarorlashtirish uchun bir qator diplomatik tashabbuslarni ilgari surayotganliklarini kuzatish mumkin.

Shuningdek, tabiiy resurslarga boy davlatlar (Qozog'iston, Turkmaniston) va tranzit davlatlar (O'zbekiston, Qirg'iziston) o'rtasida yangi logistika yo'nalishlari (masalan, Transkaspiy yo'li) rivojlanayotganligi hamda Yaqin Sharq, Janubiy Osiyo va Yevropa bozorlariga chiqish imkoniyatlari strategiyasi ishlab chiqilayotganligini kiritish mumkin.

Shuningdek, mintaqada yirik geosiyosiy aktorlar faolligining ortib borishi natijasida Markaziy Osiyo davlatlari tashqi siyosiy manevr qilish imkoniyatlarini kengaytirayotgan, shu bilan birga, raqobatli geosiyosiy muhitda o'z milliy manfaatlarini muvozanatli tarzda himoya qilish zarurati ham ortmoqda. Bunday sharoitda har bir davlat tashqi siyosatida pragmatik, o'zaro manfaatli va barqaror hamkorlikka asoslangan yondashuvlarni ilgari surmoqda.

Yuqoridagilardan tashqari, mintaqada mamlakatlari o'rtasida suv va ekologik masalalarda hamkorlik tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda, chunki transchegaraviy suv resurslaridan oqilona foydalanish, iqlim o'zgarishiga moslashuv va ekologik xavfsizlikni ta'minlash kabi masalalar barcha davlatlar uchun umumiy manfaatga ega. Shu maqsadda, Markaziy Osiyoda qo'shni davlatlar o'rtasida maxsus komissiyalar, mintaqaviy forumlar va qo'shma dasturlar doirasida muloqot va hamkorlik shakllari kengaymoqda.

Davlatni integratsiyaga undaydigan omillar nimalardan iborat ekanligiga e'tibor qaratish zarur. XX asr oxiri XX asr boshlaridagi jahon taraqqiyoti xalqaro aloqalarning, ayniqsa, iqtisodiy sohada aloqadorlikning kuchayishi, integratsiyaviy jarayonlarning rivojlanishi, turli ko'rinishdagi hukumatlararo tashkilotlarning tuzilishiga turtki bo'ldi[2]. Yaqin yillarda boshlab Markaziy Osiyo mamlakatlari tomonidan "Markaziy Osiyo plyus" muloqot formati doirasida yetakchi davlatlar va kuch markazlari bilan munosabatlarni o'zgarishda umumiy yondashuv shakllanmoqda, bu esa mintaqaning tashqi siyosiy pozitsiyasini mustahkamlash, umumiy xavfsizlikni ta'minlash va barqaror rivojlanishni rag'batlantirishda muhim omil sifatida xizmat qilmoqda. Hozirda bunday formatlar dunyoning 11 yetakchi davlati va assotsiatsiyalari bilan hamkorlikda ishlaymoqda.

Ilk bor AQSH tomonidan 2015 yilda "Markaziy Osiyo beshligi"ga taklif qilingan va tashqi ishlar vazirlari darajasida o'tkazilishi mo'ljallangan C5+1 dialog formati keyinroq ancha ommalashib ketdi. Jumladan, jahonning 11 yetakchi davlati va nufuzli

Ma'lumki, Rossiya va Ukraina voqealariga qadar Markaziy Osiyo an'anaviy ravishda buyuk va rivojlanayotgan davlatlarning diqqat markazida bo'lmagan edi. 2023 yilda o'z yondashuvlarini qayta ko'rib chiqayotgan Xitoy, Rossiya, Yevropa Ittifoqi, Turkiya va hatto Hindistonning Markaziy Osiyoga mintaqasiga qiziqishi ortib borayotgani sababli AQSHning ham mintaqaga munosabati tubdan o'zgariganligini kuzatish mumkin. Xususan, shveysariyalik diplomat, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, 2017 yil iyuldan 2020 yil iyulgacha Yevropada xavfsizlik va hamkorlik Tashkilotining Bosh kotibi bo'lib ishlagan Tomas Greminger: "Men Markaziy Osiyoni yanada dolzarb va jadal rivojlanayotgan va mintaqaviy hamkorlikka tobora ko'proq qiziqish bildirayotgan mintaqaga deb bilaman" – degan edi[2]. Uning fikriga ko'ra, Rossiya va Ukraina o'rtasiga voqealar Markaziy Osiyo mintaqasiga qiziqishni orttirdi xolos. Tomas Gremingerning fikriga ko'ra AQSH ma'muriyati, Yevropa Ittifoqi, ayniqsa Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyo bo'yicha maxsus vakili, tobora ko'proq mablag' ajratayotgan, siyosiy e'tibor qaratayotgan va C5+1 formatiga amerikaliklar va Bryusseldan qiziqish

bildirilayotgani bu so'nggi paytlarda urushdan oldin kuzatilgan tendensiyalar emasligini ta'kidladi.

2023 yil 10 mart kuni Markaziy Osiyoda urush va tinchlik hisoboti instituti (IWPR MO) mintaqaviy vakolatxonasi AQSH va Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyoga nisbatan o'zgaruvchan geosiyosiy yondashuvlarini o'rganish bo'yicha xalqaro ekspert muhokamasini o'tkazdi[3] Muhokamalarning asosiy mavzusi AQSHning Markaziy Osiyo mintaqasiga nisbatan munosabati edi. Ya'ni Rossiyaning Ukrainaga nisbatan harbiy harakatlarining olib borishi, shuningdek, Afg'onistondan AQSH ning chiqib ketishi voqealari o'ziga xos tektonik siljish bo'lgan edi. Ushbu ikkala voqea ham AQSHning mintaqadagi munosabati va mavjudligiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan edi. Ma'lumki, AQSH davlat kotibi E.Blinken mintaqaga, xususan Qozog'iston va O'zbekistonga tashrif buyurgan edi. Ushbu tashrif Markaziy Osiyo va uning qo'shnilariga, birinchi navbatda Rossiya va Xitoyga AQSH ning mintaqadan voz kechmaganligini ko'rsatdi. Ta'kidlash kerakki, garchi Markaziy Osiyo mintaqasi xavfsizlik va iqtisodiy nuqtai nazardan AQSH manfaatlari uchun asosiy mintaq bo'lmas-da, E.Blinkenning Markaziy Osiyoga tashrifi Rossiya va Xitoyning hukmronligidan farqli ravishda, Amerikaning ushbu mintaqani ramziy qo'llab-quvvatlashini namoyish etgan edi. Biroq ta'kidlash kerakki, Blinkenning Qozog'istonga tashrifi va Ostonada C5+1 uchrashuvining o'tkazilishi ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlarning birmuncha iliqlashganidan dalolat beradi, chunki 2022 yil yanvar voqealaridan keyinikkala davlat o'rtasidagi munosabatlar biroz sovigan edi. Hattoki, AQSH Kongressida Qozog'istonga qarshi sanksiyalar joriy etishga chaqiriqlar ham bo'lgan edi. Ammo bir oy o'tgach, Ukrainadagi harbiy harakatlar boshlanishi bilan dinamikasini o'zgartirib, AQSHning mintaqadagi dastlabki ritorikasini o'zgartirdi. AQSH Ostonaning Rossiya tomonidan Ukrainaga qarshi boshlangan urush hamda shuningdek, Bucha shahrida "buzilmaslik uylari"ning o'rnatilishi masalasida BMT dagi fikrlarini yoqladi.

Davlat kotibi E.Blinkenning O'zbekistonga keyingi tashrifi Bayden ma'muriyati kelishidan oldin boshlangan AQSH tashqi siyosatidagi o'zgarishlarni aks ettiradi. Ya'ni AQSH O'zbekistonga Markaziy Osiyodagi muhim hamkor sifatida e'tibor qaratayotganidan dalolat berar edi. Blinkenning qolgan mintaqa davlatlari tashqi ishlar vazirlari bilan uchrashuvlari AQSHning ushbu mamlakatlarning suvereniteti va hududiy yaxlitligini qo'llab-quvvatlashidan boshqa narsani bildirmas edi. Ta'kidlash kerakki, tashrif, shuningdek, AQSHning Xitoyning Markaziy Osiyodagi mavqei o'sib borayotgani va Rossiyaning Ukrainaga nisbatan olib borayotgan harbiy harakatlaridan keyingi mintaqaga potensial tahdidi haqida qayg'urishini namoyish etdi.

Ta'kidlash kerakki, Blinkenning tashrifi davomida "terrorizmga qarshi kurash", Islomiy ekstremizmga qarshi kurash yoki ilgari AQSHning mintaqadagi tashqi siyosatining Markaziy elementi bo'lgan Afg'oniston masalasi haqida hech narsa aytilmagan edi. Hattoki, xavfsizlik nuqtai nazaridan AQSHning Markaziy Osiyoda mavjudligi va mintaqaga qaytish niyati haqida ham hech qanday mavzu ko'tarilmagan edi. Faqatgina uglevodorodlar, tranzit yo'llari, yangi Ipak yo'li va O'rta yo'lak haqida so'z yuritildi. Amerika kun tartibida mintaq mamlakatlarining o'zaro bog'liqligi va mintaqalararo savdo g'oyalariga, shuningdek Markaziy Osiyoning umumiy iqtisodiy barqarorligiga e'tibor qaratildi. Hattoki, mazkur uchrashuvlarda Blinken mintaqada demokratiya va inson huquqlarini targ'ib qilish masalasiga kamroq e'tibor qaratganini ham kuzatish mumkin edi.

Uchrashuvdagi asosiy masala Qo'shma Shtatlar Rossiyaga Ukrainadagi urushi natijasida kiritilgan sanksiyalar tufayli Markaziy Osiyo uchun salbiy oqibatlarining oldini olishga qaratilgan edi.

Ukrainadagi mojaro AQSHning mintaqaga e'tiborini oshirgani rost, chunki ushbu voqealar ortidan Rossiya yoki Xitoyning Markaziy Osiyo va umuman butun dunyoda

hukmronlik o'rnatishi xavfi AQSHni xavotirga solayotgan edi, buning oldini olish AQSH tashqi siyosatining mazmunini ochib beradi.

Biroq boshqa bir qarashlar ham borki, AQSHning Markaziy Osiyo mintaqasiga qiziqishini mintaqa mamlakatlarining mustaqillikka erishgan yillari(1991-1992 yy.) bilan bog'lashadi. Ya'ni bunda AQSHning Qozog'istonning yadroviy qurolsizlanish siyosatini qo'llashi masalalari nazarda tutitalidi va bu borada ikkala mamlakat o'rtasidagi muvaffaqiyatli aloqalar o'rnatilganini kuzatish mumkin edi.

Imkoniyatlar to'g'risida so'z ketganda esa, Qo'shma Shtatlar mintaqa davlatlari bilan C5+1 o'zaro hamkorlik formatini qo'llab quvvatlaydi, shubhasiz. Ayniqsa bunda, mintaqa davlatlarining ehtiyojlariga qarab xavfsizlik, energetika, iqlim o'zgarishi va boshqa masalalar bo'yicha ishchi guruhlarining turli formatlarini davom ettirish tarafdori ekanligini bildirib keladi.

Bugungi kunda Markaziy Osiyoda sheriklar bilan muloqot qilishning turli xil variantlari mavjud, ammo bu ham ma'lum oqibatlariga olib keladi. Ba'zi ekspertlarning fikrlariga ko'ra, mintaqa davlatlarining Rossiya bilan, ayniqsa mudofaa sohasida hamkorlik qilishga moyilligi yoki Rossiya [harbiy] texnikasi uchun uskunalari yoki ehtiyot qismlarini yetkazib berish potensial xavf tug'dirishi mumkin[4].

Shunday qilib, S5+ formatidagi hamkorlikning istiqbollari nimalardan iborat?

Muzokaralar formati AQSH prezidenti Barak Obama davrida paydo bo'lgan. Birinchi uchrashuv 2015 yil 1 noyabr kuni Samarqand shahrida AQSHning o'sha paytdagi Davlat kotibi Jon Kerrining Markaziy Osiyo mamlakatlariga safari chog'ida bo'lib o'tgan edi. O'shanda Jon Kerri Markaziy Osiyoning barcha beshta respublikasi tashqi ishlar vazirlari bilan uchrashgan edi. C5+1 formati Markaziy Osiyoda Rossiya va Xitoy pozitsiyalarining mustahkamlanishi munosabati bilan mintaqadagi AQSH rolining pasayishini qoplash uchun mo'ljallangan edi.

O'sha paytdagi AQSH Davlat departamentining axborotiga ko'ra, tomonlar quyidagi loyihalar bo'yicha kelishib olgan edilar: "yashil" energiya va iqlim o'zgarishiga moslashish sohasida milliy rejalashtirishni qo'llab-quvvatlash, terrorizmga qarshi kurash, mintaqaviy biznesning raqobatbardoshligini oshirish, tarnsport koridorini rivojlantirish masalalaridan iborat edi[5]: C5+1 diplomatik platformasi AQSH hukumatining Markaziy Osiyoga davlat miqyosidagi yondashuvini ifodalaydi va Markaziy Osiyoning barcha besh mamlakati (Qozog'iston, Qirg'iziston Respublikasi, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekiston) hukumatlari bilan umumiy hamkorlikni nazarda tutadi. C5+1 AQSH bilan hamkorlikda umumiy muammolarni hal qiladigan mustaqil, farovon va xavfsiz Markaziy Osiyoni barpo yetish bo'yicha umumiy maqsadimizga erishish uchun Markaziy Osiyo mamlakatlari (C5) bilan va ular o'rtasidagi hamkorlikni kengaytirmoqda. C5+1 Qo'shma Shtatlar C5 mamlakatlarining suvereniteti, mustaqilligi va hududiy yaxlitligini qo'llab-quvvatlovchi vositalardan biridir.

2015 yilda tashkil etilganidan beri C5+1 platformasi Vazirlar hamkorligi, ekspertlar uchrashuvlari va tematik ishchi guruhlar faoliyati orqali AQSH va Markaziy Osiyo o'rtasidagi muloqot va hamkorlikni kengaytirishga samarali hissa qo'shdi. Iqtisodiyot, energetika va atrof-muhit va xavfsizlik bo'yicha C5+1 ishchi guruhlari, shuningdek, davom etayotgan mintaqaviy dasturlar, o'quv mashg'ulotlari va seminarlar umumiy maqsadlarga erishishda o'z hissasini qo'shmoqda.

2021 yil sentyabr oyidan boshlab C5+1 vazirlarning to'rtta uchrashuvini o'tkazdi. 28 fevral kuni C5+1 mamlakatlari tashqi ishlar vazirlari Qozog'iston poytaxti Ostonada uchrashadilar. C5+1 rasmiylari 2022 yil sentyabr va 2021 yil sentyabr oylarida BMT Bosh Assambleyasi doirasida davlat kotibi Blinken raisligidagi Vazirlar yig'ilishlarida mintaqaning iqtisodiy barqarorligi va xavfsizligini qanday qilib birgalikda oshirishimiz mumkinligini muhokama qilish uchun muzokaralar o'tkazdilar.

C5+1 rasmiylari 2022 yil sentyabr va 2021 yil sentyabr oylarida BMT Bosh Assambleyasi doirasida davlat kotibi Blinken raisligidagi Vazirlar yig'inishlarida mintaqaning iqtisodiy barqarorligi va xavfsizligini qanday qilib birgalikda oshirishi mumkinligini muhokama qilish uchun muzokaralar o'tkazdilar. Shuningdek, 2021 yil sentyabr oyida C5+1 platformasi AQSH Prezidentining iqlim masalalari bo'yicha maxsus vakili Djon Kerri ishtirokida iqlim masalasi bo'yicha Vazirlar yig'inishini o'tkazdi.

2022 yilda C5+1 kotibiyati umumiy ustuvorliklarni aniqlash va ilgari surish, ishtirokchi hukumatlar o'rtasidagi aloqalarni muvofiqlashtirish va yuqori darajadagi Vazirlar uchrashuvlari va boshqa tadbirlarni rejalashtirish jarayonlarini osonlashtirish uchun tashkil etilgan. C5+1 mamlakatlari global muammolarni mintaqaviy hal qilish orqali AQSH har bir mamlakat va ularning fuqarolari xavfsizligi va farovonligini mustahkamlashga intilayotganini anglatadi[6]. 2022 yilga kelib esa, C5+1 dialog formatida yangi bosqich boshlandi, ya'ni muloqot prezidentlar darajasiga olib chiqildi.

Hozirgi kunda S5+ formatidagi uchrashuvlar muntazam ravishda o'tkazilib borilmoqda. Ushbu format dastavval Tashqi ishlar vazirlari formatida o'tkazilgan. Hozirgi vaqtga kelib, C5+1 formati 5 mamlakat (Rossiya, Hindiston, Xitoy, AQSH, Germaniya), hamda Yevropa Ittifoqi va Fors ko'rfazining arab davlatlari hamkorligi Kengashi bilan prezidentlar darajasida ko'tarildi (Yaponiya va Koreya davlatlari ham ushbu darajaga olib chiqishga intilishmoqda). Bugungi kunga kelib O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning tashabbusi bilan bu format Davlat rahbarlari muloqoti formatiga o'zgardi.

Markaziy Osiyo davlatlari ikki tomonlama munosabatlarni yo'lga qo'yishdan tashqari, asosiy ishtirokchilar bilan (AQSH, Xitoy, Yevropa Ittifoqi, Hindiston, Yaponiya, Koreya Respublikasi) hamkorlikning ko'p tomonlama formlarini rivojlantirishga harakat qilmoqda.

Mintaqa davlatlarining bunday formatlarda ishtirok etish amaliyoti Markaziy Osiyo mamlakatlarining mintaqaviy hamkorlikni chuqurlashtirish masalalari bo'yicha pozitsiyalarini mustahkamlashga yordam beradi. Maslahat uchrashuvlari ishtirokchi-davlatlarning barqaror rivojlanishi va xavfsizligiga doir chaqiriqlarga o'z vaqtida va munosib javob berishga, Markaziy Osiyo mintaqasidagi nizo va kelishmovchiliklarni hal qilishga qaratilgan o'zaro maqbul yondashuvlar va muvofiqlashtirilgan amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun keng imkoniyat yaratadi.

Markaziy Osiyo — yagona va boy o'tmishga, umumiy madaniyatga ega. Mintaqa davlatlari o'zaro hamjihatlikda mavjud muammolarni hal eta oladi. Jahonda o'z o'rnimizni topishimiz, xalqaro maydondagi pozitsiyamizni kuchaytirish, mintaqada tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash uchun ham qo'shnilar bilan yaqin aloqalar kerak. Yuqoridagilardan kelib, "S+5" formati – Markaziy Osiyo davlatlari (Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston, O'zbekiston) va rivojlangan davlatlar o'rtasidagi hamkorlik modeli deyish mumkin. Bu format mintaqada barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlash va geosiyosiy xavfsizlikni kuchaytirishga qaratilgan. Shu nuqtai nazardan, bugungi kunda "S5+" formatining istiqbolli yo'nalishlari deb quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

Iqtisodiy hamkorlik yo'nalishi – eng istiqbolli yo'nalishlardan biri bo'lib, bunda "S5+" formati orqali rivojlangan davlatlar Markaziy Osiyo mintaqasida infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish, turli ijtimoiy-iqtisodiy sohalarga investisiyalar kiritish imkoniyatiga ega. Xususan: Xitoy Xalq Respublikasi o'zining "Makon va yo'l" tashabbusi orqali mintaqaning transport va energetika sohasidagi loyihalarga 23 milliard dollar mablag'lar ajratgan[7]. "Makon va yo'l" tashabbusi doirasida Xitoy — Markaziy Osiyo gaz quvuri va Xitoy — Qozog'iston neft quvuri barqaror ishlamoqda, shuningdek, Xitoy — Qirg'iziston — O'zbekiston temir yo'li loyihasi rejalashtirilgan. Yevropa Ittifoqi: Yashil iqtisodiyot va sanoat modernizatsiyasi uchun Markaziy Osiyoga 2024 yilgacha 1,8 milliard yevro mablag' ajratdi. Masalan, 2020 yildan boshlab Yevropa Ittifoqi "O'zbekiston tashqi savdosiga ko'maklashish"

loyihasini moliyalashtirmoqda, bu esa mamlakatning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishi uchun texnik yordam ko'rsatishni o'z ichiga oladi. Energetika va ekologik hamkorlik ham "S5+" formatining istiqbolli yo'nalishi bo'lib, Markaziy Osiyo energetika resurslariga boy mintaq bo'lganligi sababli, bu sohaga turli investitsion loyihalarni jalb etishni maqsad qilgan. Bugungi kunda "S+5" formati doirasida AQSH va Yevropa Ittifoqi ko'mirqazilma resurslardan voz kechish hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish dasturlarini qo'llab-quvvatlamoqda. Ushbu maqsadda 2023 yilda Germaniya va O'zbekiston o'rtasida 1 milliard yevrolik "yashil vodorod" ishlab chiqarish loyihasi imzolandi. Xavfsizlik sohasidagi hamkorlik mintaq davlatlarining Afg'onistondagi siyosiy vaziyat tufayli birlashishlarini taqozo etadi. Zotan, Afg'onistondagi vaziyat Markaziy Osiyo xavfsizligiga jiddiy ta'sir qilmoqda. Shundan kelib mintaqada terrorism va narkotrafikka qarshi kurashishda mintaq davlatlari turli mintaqaviy birlashmalar va xalqaro tashkilotlar doirasida birlashishga, Markaziy Osiyoda yuz yillardan beri yig'ilib kelayotgan mintaqaviy muammolarni birgalikda hal qilishga urinmoqdalar.

2025 yil 31 mart kuni O'zbekiston, Tojikiston va Qirg'iziston Prezidentlarining uch tomonlama uchrashuvi bo'lib o'tdi. Muzokaralar yakunida O'zbekiston, Tojikiston va Qirg'iziston davlat chegaralarining tutash nuqtasi to'g'risidagi shartnomani imzolash rejalashtirilgan edi. Tojikiston va Qirg'iziston davlatlari barcha masalalarni uzil-kesil hal etib, Davlat chegarasini delimitatsiya qilish to'g'risidagi shartnoma imzoladilar[8]. Ushbu hujjat, shuningdek, uch mamlakat davlat chegaralarining tutash nuqtasi to'g'risida imzolanayotgan shartnoma barqarorlik va izchil taraqqiyotni ta'minlashga, butun mintaqaning xalqaro nufuzini oshirishga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon va Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov uch mamlakat davlat chegaralari tutashgan hududda Do'stlik stelasini tantanali ravishda ochdilar. So'nggi yillarda O'zbekistonning Qirg'iziston va Tojikiston bilan tovar ayirboshlash hajmi o'n karradan ziyodga oshgani qayd etildi. Bu hajmning deyarli yarmi chegaraoldi hududlarga to'g'ri keladi. Ushbu uchrashuvda quyidagi masalalar muhokama etilgan edi:

Mamlakatlar o'rtasida transport aloqalarini rivojlantirish borasidagi ishlarni davom ettirish; Davlatlar o'rtasidagi aviaqatnovlar sonini ko'paytirish va geografiyasini kengaytirish, chegaraoldi hududlardagi shaharlar o'rtasida yangi avtobus yo'nalishlarini yo'lga qo'yish;

"Yashil" energetika va transport sohalaridagi yirik mintaqaviy loyihalar, suv va ekologiya dasturlarini ilgari surish va boshqalar. Mazkur uchrashuv yakunida O'zbekiston, Tojikiston va Qirg'iziston davlat chegaralarining tutash nuqtasi to'g'risidagi tarixiy shartnoma imzolandi hamda uch davlat rahbarlarining Qo'shma deklaratsiyasini qabul qilingan edi.

2025 yilning 3-4 aprel kunlari Samarqand shahrida "Markaziy Osiyo - Yevropa Ittifoqi" birinchi sammiti bo'lib o'tdi. 4 aprel kuni Markaziy Osiyo davlatlari va Yevropa Ittifoqining asosiy institutlari rahbarlari ishtirokida ko'p tomonlama tadbirlar bo'lib o'tdi. Sammit ishida Yevropa kengashi Prezidenti Antoniu Koshta, Yevropa komissiyasi Prezidenti Ursula fon der Lyayen, Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qasim-Jomart Toqayev, Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon va Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov ishtirok etdilar. Sammit kun tartibiga muvofiq, Markaziy Osiyo davlatlari va Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi ko'p qirrali munosabatlar va amaliy hamkorlikni rivojlantirish istiqbollari ko'rib chiqildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev Sammit to'g'risida: "Markaziy Osiyo – Yevropa Ittifoqi" formati – noyob hamkorlik platformasi bo'lib, o'lcham va institusional qamrov jihatidan unga o'xshashi mavjud emas. 27 davlatni, jumladan "Katta yettilik"ka a'zo uchta mamlakatni (Germaniya, Fransiya va Italiya) birlashtirgan Yevropa Ittifoqi Markaziy Osiyo bilan mintaqalararo darajada tizimli hamkorlikni yo'lga qo'ygan eng yirik integratsion tuzilma hisoblanadi" deya ta'kidlagan edi[9].

XULOSA

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, Markaziy Osiyo mamlakatlarining o'zaro munosabatlarini institusional asosda rivojlantirishga qaratilgan sa'y-harakatlar¹³ xususan, davlat rahbarlarining maslahat uchrashuvlari, "S5+" formatlaridagi muloqotlar, shuningdek, yetakchi xalqaro hamkorlar bilan kompleks hamkorlikni yo'lga qo'yishga intilishlari mintaqa geosiyosiy salohiyatini mustahkamlashda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Bunday formatdagi muloqotlar o'zaro ishonchni oshirish, umumiy xavfsizlikni ta'minlash, mintaqada barqaror² siyosiy-iqtisodiy muhitni shakllantirish hamda global siyosiy jarayonlarda mintaqaning ovozini kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Shu asosda, geosiyosiy hamkorlikni yanada samarali yo'lga qo'yish maqsadida quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiqdir:

1. "S5+" formati doirasida hamkorlikni institusionallashtirish – har bir yetakchi hamkor davlat bilan alohida strategik yo'nalishlar (energetika, logistika, ekologiya, xavfsizlik) bo'yicha amaliy dasturlar ishlab chiqish;

2. Maslahat uchrashuvlari samaradorligini oshirish – uning doimiy kotibiyatini tashkil etish hamda reglamentlashgan ish mexanizmlarini joriy etish;

3. Mintaqaviy geosiyosiy tahlil markazini tashkil etish – umumiy tahliliy, tahmin va siyosiy tavsiyalar tayyorlash funksiyalarini bajaradigan ixtisoslashgan tuzilmani yaratish;

4. Yagona muvofiqlashtiruvchi platforma yaratish – tashqi siyosatda Markaziy Osiyo davlatlari uchun umumiy pozisiyalar ishlab chiqish va mintaqaviy yondashuvni targ'ib etish;

5. Yosh mutaxassislar ishtirokini kengaytirish – ya'ni "S5 yoshlar muloqoti" formatini joriy etish orqali geosiyosiy masalalarda yosh avlodning mintaqaviy fikrlashini rivojlantirish.

Bizningcha, ushbu takliflar va yondashuvlar Markaziy Osiyo davlatlarining geosiyosiy jarayonlardagi pozisiyalarini kuchaytirish, ularning tashqi siyosiy manfaatlar¹¹ muvofiqlashtirish hamda mintaqada barqarorlik va taraqqiyotni ta'minlashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES):

1. Ш.Мирзиёев-“Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон” Ўзбекистон., Тошкент-2024 Б-66
2. А.Т.Жалилов Жаҳон сиёсати Ўқув қўлланма “Bookmany Print” нашриёти, 2024 Б-83
3. <https://cabar.asia/ru/mnogogrannost-problem-bezopasnosti-v-tsentralnoj-azii-prognoz-na-2023-god> Murojaat sanasi: 02.10.2024y.
4. <https://cabar.asia/ru/geopoliticheskoe-znachenie-tsentralnoj-azii-podhody-i-strategii-zapada> Murojaat sanasi: 02.10.2024y.
5. <https://www.state.gov/c51-diplomatic-platform/> Murojaat sanasi: 03.10.2024y.
6. https://yuz.uz/file/newspaper/6150118c235635695250bfd3346de80b.pdf?utm_source=chatgpt.com
7. <https://president.uz/uz/lists/view/8001>
8. <https://www.euronews.com/2025/04/01/qa-we-have-a-historic-chance-to-make-our-region-prosperous-uzbekistan-president-tells-euro>